XXI asrda axborot-kommunikatsiya ko'lamining keskin o'sib borishi, ma'naviy ehtiyojning oshishi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifalarini yuqori darajaga ko'tardi. Ta'lim tizimida musiqiy tarbiya masalalariga har jihatdan tizimli yondashuv, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda ilmiy asoslangan uslub va metodik vosi-

talarni joriy qilish o'quvchi yoshlarning madaniy, ijtimoiy hamda ma'naviyat orasidagi o'zaro aloqalarni yanada takomillashtirish imkonini beradi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida musiqiy tarbiya jarayonining samaradorligini rivojlantiruvchi zamonaviy metodikalar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Zamonaviy musiqiy ta'limni tashkil etishda qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmagan tarzda, qisqa vaqt ichida ko'zlangan natijalarga erishishdir.

Mahalliy olimlardan Q.Panjiyev o'zining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darslarini o'qitishning sifat va samaradorligini oshirish masalalari" nomli maqolasida: "Bugungi kunda musiqa madaniyati darslarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish boshlang'ich sinf musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa o'qitish o'quvchilarni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalashning ustuvor vositalaridan biridir. Musiqa madaniyati darslarida olingan bilim va ko'nikmalar chuqurlashadi, takomillashtirilib umumlashtiriladi. Musiqani tinglab, badiiy jihatdan mustaqil tahlil qilish, qo'shiq o'rgatish, musiqa savodi bo'yicha yetarlicha bilim olish ko'nikmasi shakllanadi va asta-sekin malakaga aylanib boradi. O'qituvchi o'quvchilarning musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishlarini to'g'ri tashkil etishi, ularning musiqiy madaniyatini va ijodkorlik metodikasini takomillashtirishi, musiqa tinglash, kuylash va musiqa savodiga doir ko'rgazmali qurollar hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanib o'quv jarayonini tashkil etishi talab etiladi"<sup>[7]</sup>, – deya fikr yuritadi.

Respublikamizda ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni yanada takomillashtirish jarayonida soha mutaxassislar va olimlar tomonidan yaratilgan darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, o'quv-uslubiy ishlanmalar, tarqatma materiallardan samarali foydalanib kelinmoqda. Faqatgina shu manbalar bilan cheklangan qolmasdan, ta'lim berishning yangi uslub va usullarini ishlab chiqish, zamonaviy metodikalardan foydalanish lozim. Bilim – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berishni anglatadi. Ko'nikma – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish demakdir. Malaka – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilishdir. Pedagogik faoliyat jarayonida "Musiqa madaniyati" fanini o'rgatish mobaynida ilg'or metodikalardan foydalanish hamda maktab, oila va madaniy muassasalarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatiga asoslanish yaxshi samara beradi.

Sozanda Odil Nazarov o'zining "Xalq cholg'ularida o'qitishda musiqiy asarlar ustida ishlash" nomli maqolasida pedagogik jarayonni quyidagicha izohlaydi: "Musiqiy asar bilan tanishuv va ijrochilik rejasini takomillashtirish jarayonida ustozona tajribaga asoslangan holda musiqiy asar bilan tanishib chiqib, asarni to'liq tahlil qilish rejasini takomillashtirish". Ta'lim tizimida zamonaviy metodikalardan foydalanib, o'quvchi yoshlarning musiqiy madaniyatini rivojlantirish, musiqiy-nazariy bilimlar va amaliy ijrochilik malakalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar hamda amaliy ishlarning samarali natijasi ta'kidlab o'tilgan muammolar yechimi bilan izohlanadi. Ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni rivojlantirishda o'qituvchi tomonidan to'g'ri tanlangan pedagogik texnologiyalar o'quvchilarga bilim berish, ularni kreativ tarbiyalashda o'z samarasini ko'rsatadi.

"Musiqa madaniyati" fani o'zining vazifasiga ko'ra ham san'at, ham tarbiya darsi hisoblanib, uni rang-barang, sarmazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir pedagogdan mukammal reja va pedagogik mahorat talab qiladi. Mazkur nazariy bilimlar berish asosida ma'lum bir faoliyat, ko'nikma, malaka hamda musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishni nazorat qilish, o'quvchilar tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar natijasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni va ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdagi faollikni oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda"<sup>[3]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Angliyada "Take It Away" dasturining ishlab chiqilishi musiqiy cholg'u asboblarning dolzarbligini namoyon etdi va ommalashishiga sabab bo'ldi. Angliyada Dj. Bullning "Parfeniya", Fransiyada F. Kuperon va J. Ramolarning "Barmoq mexanikasi metodi", Germaniyada F. Baxning "Klavirdagi ijroning haqiqiy san'at tajribasi", Xitoyda "Shiszin", Yaponiyada R. Lining "Iemoto Seidou tizimi", Italiyada D. Dirutaning "Transilvan", Rossiyada A. Yafalyanning "Boshlang'ich sinflarda musiqiy tarbiya nazariyasi va metodikasi" va A. Ziminaning "Kichik yoshdagi bolalar musiqiy tarbiyasi asoslari va rivojlanishi", hamda L. Shkolyarning "Maktabda musiqa ta'limi" metodikalari asosida<sup>[9]</sup> ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikalari takomillashtirilgan.

Musiqa san'atining asosiy vazifalaridan biri – ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, tanlangan musiqiy asarlarni tinglash, chuqur idrok etishni emas, balki o'quvchilarning shu san'at bo'yicha "Musiqa madaniyati" darslarida o'rganayotgan kuy-qo'shiqlarni tafakkurlarida rivojlantirishni taqozo etadi. Modomiki shunday ekan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilayotgan "Musiqa madaniyati" darslari mohiyatini bugungi kunda musiqa pedagogikasi nuqtai nazaridan o'zlashtirish, dars mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik metodikalar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir<sup>[8]</sup>. Buning uchun o'qituvchi



yuqori darajadagi pedagogik texnologiyalarni yaxshi egallagan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda chuqur tajriba va malakaga ega bo'lishi, dars ishlanmalarini o'quv elektron modul va sillabuslar asosida yaratgan bo'lishi lozim.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kun musiqa madaniyatining asosiy maqsadlaridan biri musiqa nazariyasi va amaliyotini bir-biri bilan bog'lash, ularning uyg'unligi hamda ta'sirchanligini ta'minlash orqali bilimli, ijodkor, madaniyatli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdir. Ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha cholg'u ijrochiligi faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi kategoriyalar:

*Birinchi bosqich* – dastlab, xalq xirgoyilari va boshqa asarlarni o'z ichiga oluvchi, tanlangan musiqiy cholg'uda ijro jarayonida bo'lajak sozanda uchun qulay bo'lgan repertuar tanlanadi, ijrochilikka xos barcha qoidalar ishlab chiqiladi:

- musiqiy asar qaysi janr (tur)ga mansubligi;
- asar tonligi;
- uning shakli;
- ijro uslubi va kompozitor ijodiga (qaysi davrga mansubligi) qisqacha ta'rif;
- cholg'u ijrochiligida dinamik tuslarni his qila olish, o'zi ijro etgan kuylarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini anglash.

*Ikkinchi bosqich* – cholg'uda ijro qilish asosan individual shaklda tashkil qilinib, o'quvchi musiqiy asarni chalishdan avval turli gammalar, mashqlar va etyudlarni cholg'u ijrochiligiga mos yo'nalish va uslublarda, ijro uslublari murakkab bo'lganlarini esa ustoz bilan birgalikda ham ijro qilishi mumkin bo'ladi. Maxsus gamma va mashqlar musiqiy asarni mukammal o'zlashtirishda va ijrochilik mahoratini oshirishda turtki bo'ladi.

*Uchinchi bosqich* – musiqiy asarni ijro qilish jarayonini tashkil etish bo'lib, pedagog va o'quvchi kuyning matni, ijro imkoniyatlari hamda ifoda vositalari bilan tanishadi. Asarning texnik imkoniyatlari, ijro vaqtida o'quvchi uchun murakkab va qiyin bo'lgan qismlari bo'laklarga bo'lingan holda o'rganilib boriladi. Ijro etish harakatlari qo'pol va beo'xshov bo'lmasligi, biroq nozik, chiroyli bo'lishi lozimdir. Bu jarayon yetuk mutaxassislarning ijrolarini magnit lentasi yoki video yozuvlaridan tinglab, tomosha qilish orqali shakllantiriladi. Bu jarayonda mas'uliyat pedagogdan o'ziga xos mahoratni talab etadi.

*Yakuniy bosqich* jarayonida asar frazalar shaklida ijro qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, bunda fortepiano jo'rligida, ya'ni jo'rnavoz sozanda bilan hamohang ijro asarning yaxlit yoritilishini ta'minlab beradi. Metod o'zi nima? Qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Musiqa ta'lim jarayonida metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralar berib kelmoqda? Metod so'zi yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot, voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli kabi ma'nolarni anglatadi.

Metod – o'qituvchining o'quvchilar bilan dars jarayonida muntazam ravishda foydalaniladigan, o'quvchilarga dars davomida aqliy qobiliyatlarini va mavzuga bo'lgan qiziqishlarini bayon eta olishda, bilim hamda ko'nikmalarini mukammal tarzda egallashda va ulardan amaliyotda foydalana olish imkonini beruvchi metodik ish usuli hisoblanadi. Musiqali harakatlar, murakkablashgan ijro shtrixlari hamda ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda didaktik o'yin uslublari va interfaol metodlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Ta'lim tizimida zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanib, dars davomida treninglar o'tkazish va ilg'or ta'lim metodlarini amaliyotga joriy qilish orqali pedagogik jarayonga yangicha yondashib, boshlang'ich sinf o'quvchilarini global tafakkur, kompetentlik, professionallik, yuqori darajadagi samaradorlikka erishish, ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga olib keladi.

Respublikamiz ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtiruvchi, ta'lim-tarbiya samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir ko'plab interfaol metodlardan unumli foydalanilib kelinmoqda. Interfaol metodlar bugungi kunda eng ko'p foydalanilayotgan va barcha turdagi dars jarayonlarida, turli mavzularda keng qo'llanib kelinayotgan metodlardan hisoblanadi. Bu kabi metodlar pedagoglar tomonidan o'rinli, maqsadli va samarali qo'llanishi ta'lim tizimida cholg'u ijrochiligi, ijodiy faoliyat yuritish, kreativ fikrlash, musiqiy tahlil qilish, turli davrlar orasidagi musiqiy bog'liqlikni topa olish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratib beradi. Hozirgi kunda ilg'or pedagogik metodlar asosida o'qitish haqida turli-tuman fikrlar, qarashlar va yondashuvlar mavjud. Musiqa madaniyati darsini zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiya asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarli va qiziqarli tashkil etish, tinimsiz izlanish pedagogning muhim vazifasi bo'lib qolmoqda.

Ta'lim tizimida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo'yicha XX asr musiqiy pedagogika amaliyoti bilan bog'liq E.Abdulin, Yu.Aliev, B.Asafev, V.Beloborodov, N.Vetlugina, N.Grodzenskaya, D.Kabalevskiy, R.Rigina, M.Rumer, V.Sokolov, V.Shchaskaya va boshqa ko'plab olimlar tomonidan yaratilgan metodik risolalarda musiqa faoliyati turlari bo'yicha qo'llaniladigan ko'plab metod va usullar keltirilgan. Musiqa o'qitish metodlari "Musiqa madaniyati" darslarida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro birgalikdagi faoliyatlari asosini tashkil etadi. O'qituvchi dars jarayonida qo'llaniladigan barcha metodlar asosan o'quvchilarda odob-axloq, badiiy barkamollikni tarbiyalash, musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, musiqiy idrokni boshqarish va cholg'u ijrochiligini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim. Musiqa madaniyati darslarida asosan quyidagi metodlar orqali o'quvchilarda musiqiy madaniyatni rivojlantirishda foydalaniladi: og'zaki, ko'rgazmali-informativ, badiiy-amaliy. Og'zaki metod (hikoya, suhbat, tushuntirish, izohlash, ilova) mazkur metod yordamida musiqiy asar qaysi davrga mansubligini ochishga yordam beradi, asarning badiiy ijrosiga erishishga zamin hozirlaydi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining cholg'u ijrochiligi yo'nalishlarini tanlashga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Og'zaki metodlarni qo'llash o'quvchilarning yoshiga, musiqiy savodxonligining qay darajada shakllanganligiga hamda tanlangan musiqiy asar xarakteriga bog'liq.

Pedagog ushbu metodni qo'llash jarayonida o'quvchiga berilgan ma'lum bir asar to'g'risida qisqacha bayon etib berishi maqsadga muvofiqdir. Musiqiy annotatsiya – o'quvchi yoshlarga musiqiy asar mualliflari, asarning qaysi janrga mansubligi, xarakteri, o'lchovi, badiiy obraz vositalari, musiqiy ifodasi va texnik imkoniyatlari xususida batafsil ma'lumotlar bayon etiladi:

1. Kompozitorning hayoti va ijodi yo'lida hikoyabop voqea va lavhalar (I.Bax, L.Betxoven, I.Brams, F.Shopen, K.Debussy, Y.Gaydn, F.List, V.Mosart, F.Mendelson, F.Shubert, R.Shuman, P.Chaykovskiy, A.Vivaldi, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Yu.Rajabiy va boshqalar);
2. Musiqiy asarning yaratilish tarixi, janri, stili, davrlarga xos ma'lumotlar (Renessans, barokko, klassitsizm, romantizm, impressionizm, konstruktivizm, neoklassitsizm, zamonaviy musiqa);
3. Yirik cholg'u va sahna asarlari obrazlari to'g'risida tushuncha (U.Musayevning "To'maris" baleti, A.Mansurovning "Hayvonlar sultoni", S.Yudakovning "Maysaraning ishi", M.Ashrafiyning "Dilorom", T.Jalilovning "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi va hokazo).

**Suhbat metodi** o'quvchi yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga, musiqani faol va qiziqish bilan idrok etishga undaydi. Tinglangan musiqiy asar yuzasidan bo'ladigan fikr almashinuvi jarayonida mahoratli o'qituvchi muammoli texnik holatlar, musiqiy tahlil, badiiy taqqoslash orqali o'quvchilarga musiqiy asarning o'ziga xosligini tushuntirib berishi lozim. Pedagogning mahorati ifoda vositalarining o'ziga xosligini, musiqiy obrazlarning aniq poetik tavsiflarini, musiqiy asar bilan bog'liq hayotiy qiyoslashlarni to'g'ri tasvirlay olishida namoyon bo'ladi.

D.Kabalevskiy suhbat metodiga musiqa darsini o'tkazish shakli sifatida katta ahamiyat beradi. U o'zining "Bolalarga musiqa haqida qanday so'zlash lozim" nomli kitobida suhbatning "hikoya-suhbat" va "suhbat-dialog" turlarini keltiradi. "Hikoya-suhbatlar jarayonida asarning fragmentini tinglatish o'qituvchi va o'quvchilar muloqotini yanada to'ldiradi. Tushuntirish va izohlashlar musiqa savodi elementlari bilan bolalarni tanishtirishda, cholg'ularda ijroga o'rgatishda, qo'shiq aytirish, ritmik harakatlarni bajarishda qo'llaniladi", degan metodikani ilgari surgan.

Ko'rgazmali-informativ metod musiqiy asarni cholg'u ijrochiligida namoyon etish, musiqali iqtibos (sitata), illyustratsiya (ilova), audio, video, harakatli-ko'rgazmali, reproduksiya, portret va nota yozuvlaridan iborat. Cholg'u ijrochiligida ko'rgazmalilikning harakatlanuvchi va ko'rib idrok etish turlari mavjud bo'lib, eshituv ko'rgazmaliligi musiqiy asarning audio mp3 formatidagi ko'rinishidir. "Musiqaning jonli yangrashi darsda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi" <sup>[4]</sup>, – deb yozadi N.L.Grodzenskaya.

Musiqani tinglash, idrok etish, his qilish va eshitish murakkab jarayon bo'lib, har bir musiqiy asarning mazmuni o'zaro bog'liqlikdagi badiiy ifoda vositalari majmuasini o'zida namoyon etadi. Shu maqsadda o'quvchilarni avvalo tinglash malakasini rivojlantirish va musiqiy asarning o'lchovi, ritmik harakati, usulini aniqlashni o'rgatish talab etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda harakatlanuvchi va ko'rib idrok etish ko'rgazmalilik usulini qo'llash, nota yozuvlari, tovush balandligi, metroritm, lad munosabatlari, shakl va janr turlari bilan tanishtirish yaxshi samara beradi. Badiiy-amaliy metodlar yosh avlodni malaka va ko'nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan metodlarga aytiladi. Badiiy-amaliy metodlar vositasida o'quvchilarda cholg'u ijrochiligi, individual imkoniyatlari, ijro mahorati, texnik va musiqiy madaniyatni rivojlantirish kompetensiyalari shakllantiriladi. Cholg'u ijrochiligida improvizatsiya qobiliyati, ijodkorlik malakalarini o'stirish uchun mustaqil ijod, rag'batlantirish, taqqoslash va undash kabi vositalar ko'mak beradi.

**"Aufakt" metodi:** pedagog O'zbekiston Davlat Madhiyasini kuylab beradi. Madhiya tugagan harfga o'quvchilar bolalar uchun yaratilgan kuy-qo'shiqlardan ijro etib davom ettirishlari kerak bo'ladi. Jarayon davomida o'qituvchi o'quvchilardan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar muallifini topishni qo'shimcha vazifa sifatida topshirishi



mumkin. "Auftakt" metodi boshlang'ich sinf o'quvchilarini yanada faollikka chaqiradi va ritm, shtrix, tovush atakasi qoidalariga amal qilishni o'rgatadi.

Musiqiy cholg'ular pantomimasi metodi: bu jarayonda o'quvchilar doira shaklida o'tirib oladilar va o'qituvchi ularga musiqiy cholg'ularning rasmini tarqatadi. O'quvchilarning vazifasi cholg'uda qanday holatda kuy ijro etilishini harakatlar bilan ko'rsatishdan iborat. Qolganlar esa kuzatib, qaysi cholg'u ko'rsatilayotganini topishlari kerak. Masalan, rasmda nay cholg'usi aks etgan bo'lsa, stulda o'tirgan holda qo'l harakati bilan ijro holatini ko'rsatib berishi lozim bo'ladi. Shu tarzda karnay, surnay, g'ijjak, chang, rubob, dutor, fortepiano cholg'ulari mos pantomima harakatlari bilan tasvirlanadi, o'quvchilarning musiqiy cholg'ular to'g'risidagi bilimi shu tarzda baholanadi. Dars yakunida cholg'ular rasmlari ekranda namoyish etiladi, g'olib ishtirokchilar katakchalarga cholg'u nomlarini tezkorlik bilan yozib to'ldirishlari lozim bo'ladi.

**Asarlar kontrasti metodi:** bu metod orqali yosh avlodni musiqiy asarni idrok ettirish, shuningdek ularda musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mumkin. Badiiy-pedagogik tahlil jarayonida o'qituvchi qo'ygan affektiv vazifalarga javob berish uchun o'quvchilar musiqiy asarni diqqat bilan tinglashlari, musiqiy obrazning xarakteri, lad turlarini kuzatishlari va taassurotlarni his qilishlari lozim bo'ladi.



1-rasm: Musiqiy cholg'ular

Ushbu metod cholg'u ijrochiligi ta'limining individualligini, pedagogikaning kognitiv sohasini egallashda, musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda yaxshi samara beradi. Musiqiy qobiliyati kam bo'lgan o'quvchilar uchun musiqa asarlaridagi kontrastni aniqlash va taqqoslash ularda qiziqish hissini uyg'otadi. Masalan, "Norim-norim" bilan "Dilxiroj" kuylarini taqqoslagan holda bolalar asarlardagi qadriyatlar yo'nalishlari va musiqiy munosabatlarni o'zlashtirishga hamda umumiylik jihatlarini aytishga qiynaladilar. Biroq

“Dilxiroj” kuyi bilan F. Sodiqovning “Tonggi sado” kuyini taqqoslaydigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilari asarlardagi tafovutni va umumiylikni tez anglaydilar. “Tonggi sado” asaridagi mayinlik, kuychanlik, kuyning aylanuvchan harakatga egaligi, “Dilxiroj” esa sho'x, shaxdam, quvnoq xarakterga boyligini his etadilar. Ushbu ikki kuy raqs janriga mansubligi bilan ulardagi umumiylikni his qilish qiyin emas. Shu tarzda pedagog asarlardagi kontrast umumiylikni aniqlagan holda vazifalarni belgilashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Psixomotorika metodi:** sinf ikki guruhga bo'linadi. Darslarda o'rganilgan asarlardan birini birinchi guruh cholg'uda ijro etib boshlab beradi, birinchi jumla tamomlangach, ikkinchi guruh asarni davom ettirishi kerak bo'ladi. Qaysi guruh eng ko'p to'g'ri va aniq davom ettira olsa, shu guruh har bir kuy uchun 5 balldan qo'lga kiritib boradi va keyingi kuyni boshlash imkoniyatiga ega bo'ladi. To'plangan ballar orqali g'olib guruhni aniqlash vazifasi pedagogga yuklatiladi. “Psixomotorika” metodi orqali o'quvchilarda musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, cholg'u ijrochiligida manipulyatsiya, musiqiy asarlarni tez va chaqqon o'zlashtirish, ijrochilik texnikasini muvofiqlashtirib boshqarish koordinatsiyasini rivojlantirish mumkin.

**Agogika metodi:** o'quv maqsadlarining qat'iy va ishonchli tizimini yaratish, o'quvchilarda musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish uchun pedagog o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan musiqiy asar sur'atini va ma'lum bir ifoda vositasini o'zgartirgan holda ijro etib berishi lozim bo'ladi. O'quvchilar esa musiqaning xarakteri o'zgargan yoki o'zgarmaganligini aniqlashlari kerak bo'ladi. Vazifani bajarish jarayonida o'quvchilar sur'at turlarining qanchalik ahamiyatga ega ekanligini, musiqa ifoda vositalarining ahamiyatini va zaruriyatini to'liqroq anglab yetadilar. Masalan, o'qituvchi “Yallama yorim” yoki “Andijon polkasi” xalq kuylarining ritmini soddalashtirib, sur'atini sekinlashtirib ijro etadi, o'quvchilar qo'shiqdagi o'ynoqi, hazil, quvnoq xarakter yo'qolganini, asar mazmuni butunlay o'zgarganligini yaqqol his etadilar. Yosh avlod ritm va sur'atning ushbu kuylarda yetakchi ifoda vositalari ekanligi haqida tushunchaga ega bo'ladi.

**“Aleatorika” metodi:** mashhur kompozitor, bastakor yoki biror musiqiy cholg'u chizilgan qog'oz qalpoqlar birin-ketin o'quvchilarga ko'rsatiladi. O'quvchilar kompozitorning ismi-sharifini hamda musiqiy cholg'ularning nomini topishlari kerak bo'ladi. Rasmda nima aks etganining nomini to'g'ri topgan o'quvchiga o'sha qog'oz qalpoq kiydiriladi va baholanadi. Natijada o'quvchilar bilimi yanada oshadi, rivojlantirish mahorat imkoniyatlari shakllanadi.

“Bolalarni san'atga o'rgatish nihoyatda murakkab...”<sup>[6]</sup>, – deya ta'kidlaydi taniqli kompozitor, pedagog D. B. Kabalevskiy, “..... hamma murakkabligi shundaki, ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda ularni Musiqa madaniyati darsiga qiziqitirish birinchi navbatda cholg'u ijrochiligi uchun tanlanadigan repertuar va uni ijro etish usuli, uslublari va texnologiyalariga bog'liq. Yosh ijodkorlar uchun tanlanadigan asarlar repertuarining asosiy mezonlari ularning yoshi, qiziqishi, bilim va ko'nikmalari darajasiga bog'liq bo'lib, qo'llaniladigan texnologiyalar ham ko'proq didaktik o'yinlardan tashkil topishi maqsadga muvofiq. Quvnoq, sho'x, raqs janrida va musobaqa tarzida uyushtiriladigan didaktik o'yinlar bolalar bilgan ertak qahramonlari, flora va fauna dunyosi, tabiat manzaralari bilan bog'liq bo'lishi o'quvchilarda Musiqa madaniyati faniga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

Pedagogik texnologiya turini tanlashda dars mashg'ulotlarida qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga ahamiyat berilishi lozim. Dars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'yin texnologiyalarining ko'plab turlari mavjud. Mazkur texnologiyalar o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan tarzda yoki individual mashg'ulotlarga mo'ljallangan bo'ladi. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiiq etishga bo'lgan talabning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Pedagogik texnologiya va interfaol metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini puxta bilim va malakalarni egallashlarida qulaylik tug'diradi. Shu o'rinda tajriba-sinov ishimizda qo'llagan ayrim texnologiyalarga to'xtalib o'tamiz.

**“Variatsiya” o'yini:** o'qituvchi kontr oktavada 4/4 o'lchovda chorak notani har bir hissada ijro etadi va qaysi hayvon shunday og'ir yurishini o'quvchilarga savol sifatida beradi. O'quvchilarga bir nechta hayvon nomlari variant sifatida aytiladi: toshbaqa, quyon, ayiq polvon va boshqa hayvonlar misol bo'lishi mumkin. Keyingi hayvonni topish uchun o'qituvchi yuqori registrda mayda tremolalar bilan kuy ijro etadi va so'raydi: “Qaysi hayvon shunday tez yuguradi?”, o'quvchilar o'ylab javob berishlari kerak bo'ladi. O'quvchilarga fil, quyon, tulki kabi bir nechta variantlar aytiladi. O'yin shu tarzda davom etadi. To'g'ri javob bergan o'quvchilar o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi. Bu kabi musiqiy o'yinlar orqali musiqa ritmlarini o'ynoqi tarzda o'rganish boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda yaxshi samara beradi.

**“Vibrato” o'yini:** ushbu o'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyatini rivojlantirish metodikasini shakllantiradigan qiziqarli o'yin hisoblanadi.

“Vibrato” o'yini reaksiya tezligini, texnik mahoratini oshirishga va musiqiy ko'nikmalarni takomillashtirishga yordam beradi. Raqs uchun pedagogga bir nechta musiqiy kompozitsiyalar kerak bo'ladi. Musiqa ijro etilayotganda o'quvchilar raqsga tushishlari va musiqa to'xtaganda raqs pozasida “muzlab qolishlari” darkor. Bolalar atrofidagi sinfdoshlari qanday kulgilli pozalarda qolib ketganini ko'rib, kreativlik qobiliyatlari rivojlanadi. Didaktik



o'yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib, ular orqali uyalchang, tortinchoq o'quvchilar iqtidorini ochib berish imkoniyati yaratiladi va baholash etalonini ishlab chiqish mumkin.

O'yin metodikasi jihatidan fanga, syujetli, rol ijrochisi, tadbirkorlik, andozaviy, drammalashtirish turlariga ajratiladi. Muammoli vaziyat nuqtai nazaridan yondashilganda o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy madaniyatini takomillashtirish bilan birga ularning improvizatsiya qilish qobiliyatini o'stiradi. Shu sababli turli ijtimoiy-psixologik tavsifga ega o'yinlardan ta'lim jarayonida foydalanish o'z samarasini ko'rsatadi. Aynan faol o'qitish metodlari ham ana shunday o'yinlarga tayanilgan holda tashkil etiladi. Har bir o'yin o'zining davom etish muddatiga va oson yoki murakkablik darajasiga ega<sup>[5]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchilar hamda o'qituvchining hamkorligi o'zaro muloqot va bir-biriga ko'rsatadigan ta'siri pedagogik talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi. An'anaviy metodik ishlanmalardan farqli ravishda, ta'limning pedagogik texnologiyasi jarayon markazida ta'lim oluvchilarga qaratiladi hamda ularning o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini tizimli ravishda hisobga oladi. Natijada pedagogik texnologiyalar o'quv materialining mazmunli va chuqur o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib, o'quvchilarning faol, samarali va maqsadga yo'naltirilgan ishtirokini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-3893445>
2. "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3391-son qarori. 2017-yil 17-noyabr. – T., 2017. <https://lex.uz/docs/-3581613>
3. 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/-6079561>
4. Егоров А. Основы хорового письма. Т., 1937. 192 с.
5. Kavilova D. A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. P.f.f.d. dissertatsiyasi. – B. 85.
6. Кабалевский Д. Прекрасное пробуждает доброе. М., 1973. 182 с.
7. Kavilova D. A. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida musiqiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. P.f.f.d. dissertatsiyasi. – B. 82.
8. Orhan Şalik Gökyay. Dede Korkut hikayeleri. Kabalcı Yayıncılık – Istanbul, 2013.
9. Клобукова Н. Ф. Западная музыкальная культура в Японии периода Мэйдзи (1868–1912): Заимствование и адаптация. Автореферат дисс. канд. культурологии. Москва, 2018. – 36 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.